

**O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
VA TURISTLARNI JALB QILISH**

Hamidullayev Doniyor Dilshod o'g'li

Namangan muhamdislik texnologiyalari instituti talabasi

hamidullayevdoniyor593@gmail.com

Annotation: O'rta Osiyoda joylashgan O'zbekiston boy tarixi, yodgorliklari, hayratlanarli go'zalliklarga ega. Ushbu maqola mamlakatga xorijiy va mahalliy sayyoohlarni yanada jalg etish, sayyoohlilik tajribasini shakllantirish va turizm milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlanish, yangi ish o'rirlarni yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish haqida ma'lumotlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: turizm, modernizatsiya, sayyoohlar, mehmonxona, transport, gastronom, infratuzilma industriya

KIRISH

Ma'lumki, yurtimiz o'zining boy madaniy-tarixiy merosi, go'zal tabiat, manzaralari va mehmodo'st xalqimiz bilan mashhur mamlakat hisoblanadi. O'zbekiston mustaqilika erishgach, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishni o'zining asosiy maqsadi qilib belgilab oldi. Bu ishda turizm sohasi ham yetakchi ro'l o'ynaydi. Turizm nafaqat o'tmishni o'rganish, o'zga xalqlar va elatlari bilan tanishish, ularning madaniy yodgorliklaridan bahramand bo'lish, shuningdek, u katta biznes ham hisoblanadi. Turizmni, avvalambor, xususiy sektorda rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ'ib qilish kerak.

O'zbekistonda turizmni rivojlanish strategiyasi turizm infratuzilmasini rivojlanishiga asoslangan. Mamlakatimizda mexmonxonalar, restoranlar ya'ni gastronomlar, transport va sayyoohlilik obyektlarini modernizatsiya qilish va yangilarini qurishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu o'z navbatida turistga yaxshi xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi. O'zbekiston hukumati xorijiy va mahalliy sayyoohlarni jalg etish maqsadida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ob'ektlarni modernizatsiya qilish, yangilarini qurib bitkazishga katta e'tibor qaratayabdi.

Mamlakatimizda ko'plab yangi va hashamatli mehmonxonalar tarmoqlari qurilgan va ularning aksariyati hususiydir. Turizmning rivojlanishi birinchi navbatda turizm industriyasining o'zagi bo'lgan mehmonxonalarning rivojlanishi bilan ham bog'liq. Chunki mehmonxona biznesi turizmning ajralmas qismi bo'lib, birinchi navbatda turistlarni qabul qiluvchi va turistlarning tunashga, dam olishga bo'lgan

ehtiyojlarni qondiruvchi eng muhim bo'lagi hisoblanadi. O'zbekistonda jami bo'lib 1046 ta joylashtirish o'bektlari mavjud. Bularning 28% I yulduzcha reytingi toifasiga ega.

Mehmonxonalarining qulaylik darajasi kompleks mezon bo'lib, u quyidagilar bilan belgilanadi: 1) nomerlar fondi holati va tarkibi: nomerlar yuzasi, bir o'rini va ko'p o'rini nomerlar ulushi, kommunal qulayliklar mavjudligi; 2)mebel, inventer, sanitar-gigienik jihozlar holati; 3)ovqatlanish xizmatlari mavjudligi, holati ishi va tartibi; 4)mehmonxona binosi, unga kirish yo'laklari, hududdagi obodonlashtirish holati.

Turistik mahsulotning asosiy tarkibiy qismiga kiruvchi transport xizmatlari jami xizmatlarning 27% ini tashkil qiladi. Yo'lovchilarni, shu jumladan, turistlarni tashish har xil transport turlarida, chunonchi: havo, yer usti, suv transportida amalga oshiradi.

Transport tashish xizmatlarining xili va turi bo'yicha quyidagicha tasniflanadi:

- 1) Tashishning yer ustida olib yurish turlari bo'yicha (hayvonlar yordamida, avtomobil transportida, temir yo'llari, metro, tramvay va boshqalar);
- 2) Havo oqali tashish turlari (havo sharlari, drijabllar, deltaplanlar, vertalyotlar, samalyotlar va parashutlar);
- 3) Dengiz va daryo suvlari orqali tashish transporti (sol va qayiqlar, yelkanli kemalar, dengiz va daryo kemalari, suv osti kemalari va boshqalar);

Mamlakatmizda ko'plab restoranlar faoliyat olib bormoqda va turistlarga xizmat ko'rsatmoqda. Turistlarga restoran xizmati gastronomik turizm deb ataladi. Gastronomik turizm – bu mamlakatning uning ta'm va didga bo'lgan afzalliliklari, an'analari orqali tushunish va his qilish, shuningdek, ovqatlanish madaniyati bilan tanishish imkoniyatidir. Turizmning bu turi o'z sayohatiga yangi g'ayrioddiy narsalarni olib kelmoqchi bo'lgan, iste'mol qilayotgan taomlari orqali mamlakat va xalq madaniyatini ko'rish va his qilishni istagan turistlar uchun mos keladi. Ayniqsa turistlar bizning milliy taomlarimizni sevib iste'omol qiladi. Masalan: palov, kabob, beshbarmoq, lag'mon, somsa, manti kabi ovqatlarimiz mavjud. Birgina oshning yuzdan ortiq turi bor.

Turistlar diqqatga sazovor joylarni ko'rishni, tarixini o'rganishni sevishadi. Yurtimizda sayohat uchun qulay tarixiy joylar bor. Buxoro, Samarcand, Xivani bunga misol qila olamiz.

Samarqanddagi majmular: Go'ri amir, Registon maydoni, Bibixonim jome masjidi, Ulug'bek rasadxonasi; Buxorodagi majmular: Somoniylar maqbarasi, Chashmai Ayub maqbarasi, Mirzo Ulug'bek madrasasi; Xivadagi majmular: Nurillaboy saroyi, Muhammad Aminxon minorasi, Pahlavon Mahmud majmuasi kabilar turistlar ko'p tashrif buyuradigan joy hisoblanadi.

O'zbekistonga kelayotgan sayyoohlар soni yildan-yilga ortib bormoqda. 2005-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyoohlар soni dunyoning 117 davlatidan 240

ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda O'zbekistonga 2,5 milliondan ortiq sayyoh tashrif buyurgan. 2018- yilda ularning oqimi 5,3 million kishiga yetdi. Keyinchalik O'zbekiston yurtimizga sayyoohlар oqimini oshirish, turistik salohiyatimizni rivojlantirish maqsadida 2020-yil 1-yanvarda 86 ta davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish tartibini joriy etgan.

Xulosa

Shunday qilib yurtimizda turizm sohasini rivojlantirish uchun sidqi dildan harakat qilishmiz kerak. Turizm sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotiga valyuta oqimini jalb qiladi, bundan tashqari turistik madaniyatimizni rivojlantiradi va o'zga xalqlar bilan o'zaro munosabatlarimizni mustahkamlydi. Turistlar ko'p foydalanadigan narsalarga e'tiborimizni qaratishimiz zarur hisoblanadi. Ya'ni mehmonxona, restorantlar, transportlar va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International scientific and practical conference cultural echoes on the silkroad: bridging historical legacies with modern tourism may 16-18, 2024
2. **Raximov Z. O.** Turizm sohasida mehmonxonalar xo'jaligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. //Monopografiya. – Samarqand; SamSI, 2021. 212 bet
3. “**PEDAGOGS**” international research journal ISSN: **21811-4027_SJIF:4.995**
4. **Turizm asoslari:** bakalavriat ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma/M.A. Mirzayev, M.T. Aliyeva; mas'ul muharrir A.SH.Bekmurodov; faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011,- 288 b
5. O'zbekiston Respublikasi prezidenetining farmoni, 05.11.2019-yildagi PF-5611-son
6. <https://staff.tiame.uz>